

## **MOLIYAVIY HISOBOTLARNI TAQDIM ETISHNING MAQSADI**

Z.T.Mamanov<sup>1</sup> 

1. University of Economics and Pedagogy, Andijon, O'zbekiston.

**Correspondence:** Mamanov Zafarjon Tavbayevich, University of Economics and Pedagogy, Andijan, Uzbekistan.

e-mail: mamanovzafarjon@mail.ru

**Received:** 22 May 2025; **Accepted:** 05 June 2025; **Published:** 10 June 2025.

**Abstract. Mavzuning dolzarbliji.** Umumiy maqsaddagi moliyaviy hisobotlarni taqdim etish maqsadi Konseptual asosning fundamental bazasini shakllantiradi. Umumiy maqsaddagi moliyaviy hisobotlar hisobot beruvchi subyektning iqtisodiy resurslari, tashkilotning resurslariga nisbatan talab qilish huquqlari, ushbu resurslar va talab qilish huquqlaridagi o'zgarishlarni hamda subyektning rahbariyati, strategik boshqaruv organi iqtisodiy resurslardan foydalanish bo'yicha o'z javobgarliklarini qanchalik oqilona, samarali bajarganliklari to'g'risidagi ma'lumotni o'z ichiga oladi.

**Tadqiqot materiallari va usullari.** Umumiy maqsaddagi moliyaviy hisobotlar mavjud va potensial investorlar, qarz beruvchilar hamda boshqa kreditorlarga moliyaviy ma'lumotlardan foydalanib hisobot beruvchi subyektni resurslar bilan ta'minlash to'g'risida qarorlar qabul qilishlari uchun taqdim etiladi. Umumiy maqsaddagi moliyaviy hisobotlar hisobot beruvchi subyektning qiymatini ko'rsatish uchun mo'ljallanmagan bo'lsada, ular mavjud va potensial investorlar, qarz beruvchilar hamda boshqa kreditorlarga hisobot beruvchi subyektning qiymatini baholashga yordam beradigan ma'lumotni ta'minlaydi. **Tadqiqot natijalari.** Umumiy maqsaddagi moliyaviy hisobotlar hisobot beruvchi subyektning moliyaviy holati to'g'risidagi ma'lumotni, iqtisodiy resurslar va ushbu hisobot beruvchi subyektga nisbatan talab qilish huquqlari to'g'risidagi ma'lumotni taqdim etadi. **Xulosa.** Moliyaviy hisobotlar hisobot beruvchi subyektning iqtisodiy resurslari va talab qilish huquqlarini o'zgartiradigan operatsiyalar va boshqa hodisalarning ta'sirlari to'g'risidagi ma'lumotni ta'minlaydi. Ma'lumotning ikkala turi ham tashkilotga resurslar taqdim etishga oid qarorlar qabul qilish uchun foydali manba ma'lumoti hisoblanadi.

**Keywords.** umumiy maqsaddagi moliyaviy hisobotlar, dividendlar, qarzning asosiy summasi, foizlar, bozordagi baho, iqtisodiy resurslar, tashkilotning resurslariga nisbatan talab qilish huquqlari, talab qilish huquqlaridagi o'zgarishlar.

### **Kirish**

Umumiy maqsaddagi moliyaviy hisobotlarni taqdim etish maqsadi Konseptual asosning fundamental bazasini shakllantiradi. Umumiy maqsaddagi moliyaviy hisobotlar hisobot beruvchi subyektning iqtisodiy resurslari, tashkilotning resurslariga nisbatan talab qilish huquqlari, ushbu resurslar va talab qilish huquqlaridagi o'zgarishlarni hamda subyektning rahbariyati, strategik boshqaruv organi iqtisodiy resurslardan foydalanish bo'yicha o'z javobgarliklarini qanchalik oqilona, samarali bajarganliklari to'g'risidagi ma'lumotni o'z ichiga oladi.

### **Asosiy qism**

Umumiy maqsaddagi moliyaviy hisobotlar mavjud va potensial investorlar, qarz beruvchilar hamda boshqa kreditorlarga moliyaviy ma'lumotlardan foydalanib hisobot beruvchi subyektni resurslar bilan ta'minlash to'g'risida qarorlar qabul qilishlari uchun taqdim etiladi.

Bunday qarorlarga quyidagilar to'g'risidagi qarorlar kiradi[1]:

a) ulushli va qarz instrumentlarini sotib olish, sotish yoki saqlash to'g'risida;

b) qarzlar va kreditning boshqa shakllarini taqdim etish yoki so'ndirish; yoki

tashkilotning iqtisodiy resurslaridan foydalanishga ta'sir ko'rsatuvchi yoki ushbu xatti-harakatlarga boshqacha tarzda ta'sir ko'rsatadigan boshqaruv harakatlariga nisbatan ovoz berish

huquqlarini amalga oshirish.

“Umumi maqsadli moliyaviy hisobotning maqsadi mavjud va potensial investorlar, kreditorlar va boshqa kreditorlar uchun korxonani resurslar bilan ta’minlash to’g’risida qaror qabul qilishda foydali bo’lgan korxona to’g’risidagi moliyaviy ma’lumotlarni taqdim etishdan iborat”[2].

Mayjud va potensial investorlar, qarz beruvchilar va boshqa kreditorlar tomonidan yuqorida keltirilgan qarorlarni investitsiyalardan olinishi kutilayotgan daromadlar, ya’ni dividendlar, qarzning asosiy summasi va foizlarni to’lanishi hamda bozordagi bahoni o’zgarishini hisobga olgan holda qabul qiladilar. Investorlar, qarz beruvchilar va boshqa kreditorlarning qarorlari investitsiyalardan olinadigan samara hisobot beruvchi subyektga kelgusida sof pul mablag’lari summasini kirimi, istiqbolni baholash va hisobot beruvchi subyektning iqtisodiy resurslarini ma’suliyatli boshqarivchi rahbariyat faoliyatini baholashga ham bog’liqdir. Mavjud va potensial investorlar, qarz beruvchilar va boshqa kreditorlar bunday baholashni amalga oshirish imkonini beradigan ma’lumotga ega bo’lishlari kerak bo’ladi.

Yuqorida ta’riflangan baholashni amalga oshirish uchun mavjud va potensial investorlar, qarz beruvchilar va boshqa kreditorlarga quyidagi ma’lumotlar zarur bo’ladi[3]:

(a) tashkilotning iqtisodiy resurslari, tashkilotning resurslariga nisbatan talab qilish huquqlari va ushbu resurslar va talab qilish huquqlaridagi o’zgarishlar;

(b) tashkilotning rahbariyati va strategik boshqaruv organi3 tashkilotning iqtisodiy resurslaridan foydalanish bo'yicha o'z javobgarliklarini qanchalik oqilona va samarali bajarganliklari to'g'risidagi ma'lumot.

Hisobot beruvchi subyektlardan mavjud va potensial investorlar, qarz beruvchilar hamda boshqa kreditorlar ma’lumotni bevosita taqdim etishini talab qilishlari mumkin emas. Mavjud va potensial investorlar, qarz beruvchilar hamda boshqa kreditorlar zarur bo’lgan moliyaviy ma’lumotning ahamiyatli qismini umumi maqsaddagi moliyaviy hisobotlardan olishlari lozim. Va ular umumi maqsaddagi moliyaviy hisobotlardan foydalanuvchilar hisoblanadi.

Umumi maqsaddagi moliyaviy hisobotlar mavjud va potensial investorlar, qarz beruvchilar hamda boshqa kreditorlarga zarur bo’lgan ma’lumotlarni ta’minlamaydi yoki ta’minlay olmaydi. Bunday holda foydalanuvchilar boshqa manbalardan, masalan, umumi iqtisodiy sharoitlar va kutishlar, siyosiy voqealar va siyosiy iqlim, tarmoq va tashkilot uchun proqnozlar kabi tegishli ma’lumotlarni hisobga olishi lozim bo’ladi.

Umumi maqsaddagi moliyaviy hisobotlar hisobot beruvchi subyektning qiymatini ko’rsatish uchun mo’ljallanmagan bo’lsada, ular mavjud va potensial investorlar, qarz beruvchilar hamda boshqa kreditorlarga hisobot beruvchi subyektning qiymatini baholashga yordam beradigan ma’lumotni ta’minlaydi.

Moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilarning ma’lum bir qismi alohida tarzda turli va bir-biriga zid bo’lgan ma’lumotga ehtiyoj sezadilar. Kengash standartlarni ishlab chiqishda taqdim etilgan ma’lumotlar to’plami imkon qadar ko’p sonli foydalanuvchilarning talabini ta’minlashini nazarda tutadi. Shunday bo’lsada, ma’lumotlarni umumi ehtiyojlarga e’tibor qaratgan holda foydalanuvchilarning ma’lum bir guruhiga foydali bo’ladigan qo’shimcha ma’lumotlarni kiritishda hisobot beruvchi subyektga to’sqinlik qilmaydi.

Hisobot beruvchi subyektning rahbari ham moliyaviy ma’lumotdan manfaatdordir. Lekin, rahbarga umumi maqsaddagi moliyaviy hisobotlarga tayanish zarurati yo’q, chunki u zarur moliyaviy ma’lumotni ichki manbalardan olishi mumkin.

Investorlar, qarz beruvchilar va boshqa kreditorlardan tashqari tartibga soluvchi organlar va jamoatchilik kabi foydalanuvchilarning boshqa guruhlari ham umumi maqsaddagi moliyaviy hisobotlarni foydali deb topishlari mumkin.

Moliyaviy hisobotlar iqtisodiy hodisalarni mutlaq aniq aks ettirishga emas, ahamiyatli darajada, baholash, mulohazalar va modellarga asoslanadi. Konseptual asos baholash, mulohazalar va modellar negizidagi tamoyillarni belgilaydi. Mazkur tamoyillar Kengash va moliyaviy hisobotlarni

tayyorlovchilar intiladigan maqsad sifatida o'zini namoyon qiladi. Aksariyat maqsadlar Konseptual asosda taqdim etilgan qarashlarga muvofiq moliyaviy hisobotlarni to'liq hajmda mukammal taqdim etib bo'lmaydi, chunki, qisqa muddatli istiqbol, operatsiyalar va boshqa hodisalarni tahlil qilishning yangi usullarini tushunish, qabul qilish va joriy etish uchun vaqt talab qilinadi. Shunga qaramay, maqsadni belgilash moliyaviy hisobotlarni foydaliligin oshirishda ularni taqdim etish evolyutsiyasi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi.

### **Xulosa**

Umumiyl maqsaddagi moliyaviy hisobotlar hisobot beruvchi subyektning moliyaviy holati to'g'risidagi ma'lumotni, iqtisodiy resurslar va ushbu hisobot beruvchi subyektga nisbatan talab qilish huquqlari to'g'risidagi ma'lumotni taqdim etadi. Shuningdek, moliyaviy hisobotlar hisobot beruvchi subyektning iqtisodiy resurslari va talab qilish huquqlarini o'zgartiradigan operatsiyalar va boshqa hodisalarning ta'sirlari to'g'risidagi ma'lumotni ta'minlaydi. Ma'lumotning ikkala turi ham tashkilotga resurslar taqdim etishga oid qarorlar qabul qilish uchun foydali manba ma'lumoti hisoblanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

[1] O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2022 yil 10 noyabrdagi 61-son buyrug'iga 1-ILOVA "Moliyaviy hisobotlarni taqdim etishning konseptual asosi"

[2] Международные стандарты финансовой отчетности [Электронный ресурс] : учеб. пособие / авт.-сост. А. А. Мишин; Владим. гос. ун-т им. А. Г. и Н. Г. Столетовых. – Владимир : Изд-во ВлГУ, 2023. – 417 с.

[3] O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2022 yil 10 noyabrdagi 61-son buyrug'iga 1-ILOVA "Moliyaviy hisobotlarni taqdim etishning konseptual asosi"